



LEARNING ENGLISH: PROBLEMS, MODERN APPROACHES AND EFFECTIVE SOLUTIONS

Rayimova Shakhinabonu Azim qizi

1st Year Student Faculty of Foreign Languages

Foreign Language and Literature, English Language Major

Karshi State University

For contact Tel:+998953662644

rayimovashohsanam01@gmail.com

Abstract

This article examines the main challenges encountered in the process of learning the English language, their underlying causes, and effective solutions. In addition, it analyzes modern methods and approaches aimed at developing the four essential language skills: speaking, reading, writing, and listening. The study outlines strategies that help learners overcome difficulties in language acquisition, enhance motivation, and develop practical communication skills. The findings of this research may be beneficial for students and learners striving to achieve proficiency in English effectively.

Keywords: English language learning, language teaching methodology, speaking, reading, writing, listening, communicative approach, language skills, motivation, learning process, modern educational technologies.

Introduction

INGLIZ TILINI O‘RGANISH: MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARALI YECHIMLAR

Qarshi davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyot ingliz tili yo‘nalishi

1-bosqich talabasi Rayimova Shaxinabonu Azim qizi

Murojaat uchun Tel:+998953662644

rayimovashohsanam01@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, ularning sabablari hamda samarali yechimlari yoritilgan. Shuningdek, til o'rganishda muhim bo'lgan to'rt asosiy ko'nikma — speaking, reading, writing va listeningni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metod va yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada o'quvchilarga ingliz tilini o'zlashtirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, motivatsiyani oshirish va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan usullar bayon etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tilini samarali o'rganishga intilayotgan o'quvchilar va talabalarga foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Ingliz tili o'rganish, til o'rgatish metodikasi, speaking, reading, writing, listening, kommunikativ yondashuv, til ko'nikmalari, motivatsiya, o'quv jarayoni, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные проблемы, возникающие в процессе изучения английского языка, их причины и эффективные пути решения. Кроме того, анализируются современные методы и подходы, направленные на развитие четырёх ключевых языковых навыков: speaking, reading, writing и listening. В статье представлены способы, помогающие учащимся преодолевать трудности при освоении английского языка, повышать мотивацию и формировать навыки практического использования языка. Результаты данного исследования могут быть полезны учащимся и студентам, стремящимся к эффективному овладению английским языком.

Ключевые слова: изучение английского языка, методика преподавания языка, speaking, reading, writing, listening, коммуникативный подход, языковые навыки, мотивация, учебный процесс, современные образовательные технологии.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar muloqot qiladigan, ta'lim, fan va iqtisodiyotning asosiy tiliga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Chet

tillarini o'rganish — bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatimiz kelajagi uchun ham zarur omildir." Haqiqatan ham, zamonaviy jamiyatda ingliz tilini bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim shartidir. Xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi bugungi kunda professional ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislar chet ellik hamkorlar bilan faol muloqot olib borganlarida ingliz tili asosiy ko'prik vazifasini o'taydi. Shu sababli, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan intilishi sezilarli darajada kengayib, davlatimiz tomonidan til o'rganish uchun ko'plab sharoitlar yaratilmoqda. Biroq, ingliz tilini o'rgatish, ayniqsa ona tili bo'lmaganlar uchun, hamon murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. O'lchanadigan va samarali natijalarga olib keladigan to'g'ri o'qitish metodikasini topish oson emas. An'anaviy sinf usullaridan tortib zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan yondashuvlargacha — har birining o'z afzalligi va kamchiliklari mavjud. Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan turli zamonaviy usullarni tahlil qilib, ularning samaradorligini empirik dalillar asosida ko'rib chiqadi hamda eng maqbul yechimlarni taqdim etadi.

Asosiy qism

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rganuvchilar yillar davomida grammatika, lug'at va tinglashga katta e'tibor qaratishadi, ammo og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishga yetarli vaqt ajratmaydilar. Rasulov (2017) ta'kidlaganidek, hatto ingliz tilini 3 yildan beri o'rganayotgan kishi ham, bu tilni kundalik hayotida doimiy ishlatadigan 3 yoshli bola darajasida gapira olmasligi mumkin, chunki bola tildan faol va uzluksiz foydalanadi. Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun bir qancha samarali usullar mavjud. Birinchidan, ingliz tilini biladigan do'stlar bilan faqat ingliz tilida muloqot qilish amaliyoti juda foydali hisoblanadi. Ikkinchidan, so'zlashuv klublariga a'zo bo'lib, turli mavzularda bahs-munozaralarda ishtirok etish og'zaki nutqni sezilarli darajada o'stiradi. Uchinchidan, Skype va boshqa raqamli platformalar orqali xorijiy suhbatdoshlar bilan muloqot qilish ham samarali yondashuv sifatida tan olingan. To'rtinchidan, ko'zguga qarab gapirishning oddiy ammo samarali usuli nafaqat og'zaki nutqni, balki o'ziga ishonchni va omma oldida dadil so'zlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Shunday qilib, ingliz tilida og'zaki ko'nikmani o'stirish uchun kundalik hayotda tildan faol foydalanish, amaliyot miqdorini oshirish va turli interaktiv usullardan birgalikda foydalanish zarur[1].

Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun og'zaki nutq bilan bir qatorda yozma ko'nikma ham jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, IELTS kabi xalqaro imtihonlarning Writing qismida ko'pchilik past ball olishi bu muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mutaxassislarning fikricha, yozma nutqni rivojlantirish uchun muntazam va izchil mashq qilish talab etiladi — bir-ikki marta yozib yuqori natija kutish, ilk mashg'ulotdan so'ng professional futbolchi bo'lishni kutish kabi bema'nidir.

Yozma ko'nikmani rivojlantirishning bir necha asosiy yo'nalishlari mavjud. Birinchi va eng muhimi — yozishni kundalik odatga aylantirish: har kuni hatto bir paragrafdan bo'lsa ham muntazam yozish amaliyoti ko'nikmani sezilarli darajada o'stiradi. Ikkinchidan, ko'p o'qish orqali boshqa mualliflarning uslubini o'rganish va o'z yozuv uslubini shakllantirish tavsiya etiladi. Uchinchidan, yozuvda murakkab va ortiqcha so'zlardan qochib, fikrni aniq va lo'nda ifodalash muhim — qisqa va ravshan jumlar o'quvchiga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. To'rtinchidan, yozilgan matnni sinchkovlik bilan tahrir qilish zarur, bunda Grammarly kabi zamonaviy onlayn tahrirlovchi vositalardan foydalanish samarali natija beradi. Beshinchidan, yozishdan oldin aniq fikr va rejaga ega bo'lish, mazmundan chalg'ituvchi ortiqcha jumladan qochish yozuv sifatini tubdan oshiradi[2].

Shu bilan birgalikda, Reading bo'limi ko'pchilik o'rganuvchilar uchun eng qiyin qism hisoblanadi. Absalamova (2025) ta'kidlaganidek, Reading ko'nikmasini rivojlantirishda o'qish turini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi — ilmiy maqolalar, gazeta va jurnallarni muntazam o'qish nafaqat lug'at boyligini kengaytiradi, balki matn tuzilishini tushunish va o'qish tezligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, so'z boyligini kengaytirish ham samarali natijaga erishishning asosiy omillaridan biridir. Akademik matnlarda tez-tez uchraydigan analyze, significant, approach kabi so'zlarni oldindan o'rganish test paytida qimmatli vaqtni tejaydi. Muntazam amaliy testlar (practice tests) bajarish esa vaqt boshqaruvi, savol turlarini tushunish va xatolardan o'rganish imkonini beradi[3].

Bundan tashqari, matnda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'qish ko'nikmasini samarali shakllantirish va axborotni tahlil qilish jarayoni to'rtta asosiy strategiyaga tayanadi:

Skimming: Matnni tezlik bilan o'qib chiqish orqali uning umumiy yo'nalishi va asosiy g'oyasini tushunish usuli bo'lib, vaqtni sezilarli darajada tejashga yordam beradi.

Scanning: Matndagi aniq fakt, ism, raqam yoki sana kabi muhim ma'lumotlarni butun matnni to'liq o'qimasdan turib, tezkor qidirib topish ko'nikmasidir.

Intensive reading: Qisqa hajmdagi matnni chuqur tahlil qilish, ko'plab ma'lumotlarni sinchiklab o'qish va tushunish orqali lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Extensive reading: Muntazam ravishda badiiy kitoblar, hikoyalar, roman va maqolalarni o'qish orqali umumiy bilim va dunyoqarashni kengaytirish usulidir. Xalqaro PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari natijalari ham o'qish savodxonligining muhimligini ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, ko'plab davlatlarda o'quvchilarning qariyb 27 foizi murakkab matnlarni tushunishga qiynaladi, bu esa o'qish malakasini rivojlantirishda yangi metodik usullardan tizimli foydalanish zarurligini isbotlaydi[4].

Listening ko'nikmasini rivojlantirishda samarali metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Xususan, autentik audio va video materiallar o'quvchini real nutq muhiti, tabiiy talaffuz hamda intonatsiya bilan tanishtiradi. Shuningdek, tinglash jarayonini pre-listening, while-listening va post-listening bosqichlari asosida tashkil etish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu jarayonni yanada samarali qilib, mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi[5].

Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodlari

O'qish savodxonligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ingliz tilini o'rganishda ham an'anaviy usullardan zamonaviy, talabaga yo'naltirilgan yondashuvlarga o'tish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy metodlar amaliy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Communicative Language Teaching (CLT) – haqiqiy hayotdagi muloqot va o'zaro ta'sirga e'tibor qaratib, o'quvchilarni real kontekstlarda tildan mazmunli foydalanishga undaydi

Task-Based Language Teaching (TBLT) – vazifalar orqali o'rganishga urg'u berib, talabalarni real hayotdagi til ishlatilishini taqlid qiluvchi amaliy topshiriqlarga jalb qiladi .

Content and Language Integrated Learning (CLIL) – til o'rganishni boshqa fanlarni o'qitish bilan birlashtirib, talabalarga akademik mazmuni o'zlashtirish davomida til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi . Loyihaga asoslangan ta'lim – talabalar o'rganayotgan tildan foydalanib, haqiqiy vazifalarni (video taqdimot, risola, madaniy tadbir) hal qiladilar. Bu usul nafaqat til ko'nikmalarini, balki muammo yechish va jamoaviy ishlash qobiliyatini ham oshiradi .

Texnologiya, VR/AR va ta'lim ilovalaridan foydalanish – interaktiv va immersiv o'rganish muhitini yaratib, o'quvchilarning til bilish darajasini oshirishga yordam beradi .

Shaxsiylashtirilgan ta'lim – har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlariga moslashtirilgan individual yondashuv orqali o'z sur'atida rivojlanish imkonini beradi .

An'anaviy metodlar: I.V. Raxmanov tadqiqotlari Zamonaviy metodlarni to'g'ri baholash uchun an'anaviy yondashuvlarni ham bilish zarur. Metodlar tarixini chuqur o'rgangan metodist olim prof. I.V. Raxmanovning ta'kidlashicha, tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda – grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari sifatida amalga oshirilgan . Grammatika-tarjima metodining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan; Grammatika o'rganish predmeti sifatida olinib, leksika unga bo'ysundirilgan holda tanlangan; Avval grammatik qoida yodlanib, so'ng qoida asosida gaplar tuzilgan; Grammatik shakl va so'z ma'nolari so'zma-so'z tarjima orqali ochib berilgan; Til materiali so'zma-so'z tarjima va yodlash yo'li bilan o'zlashtirilgan; So'zlar kontekstdan tashqarida, alohida-alohida yodlangan [6].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilini o'qitish metodikasi globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etadi va doimiy rivojlanishni talab qiladi. An'anaviy usullar — xususan, prof. I.V. Raxmanov tomonidan chuqur tahlil qilingan grammatika-tarjima metodi — o'z davrida muayyan natijalar bergan

bo'lsa-da, hozirgi kunda o'quvchilarni faol muloqotga jalb qilish, motivatsiyasini oshirish va real hayotda til ko'nikmalaridan foydalanish jihatidan yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlar — Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content and Language Integrated Learning (CLIL), shuningdek loyihaga asoslangan va shaxsiylashtirilgan ta'lim — o'quvchini jarayonning markaziga qo'yib, tilni mazmunli kontekstda o'zlashtirish imkonini beradi. Texnologiya, multimedia, VR/AR vositalarining integratsiyasi esa o'quv jarayonini yanada interaktiv va jozibador qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, har bir metodning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, yagona "universal" usul yo'q. Shu sababli o'qituvchilar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi va o'rganish maqsadlaridan kelib chiqib, an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlikda qo'llashlari maqsadga muvofiqdir. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, chet tillarini o'rganishning shaxsiy rivojlanish va mamlakat kelajagi uchun zarur omil sifatidagi ahamiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 Muhammedova, M. (2024). Ingliz til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(6), 83-86.
- 2 Global Education. (2022). Writing'ni rivojlantirish uchun tavsiyalar. *global-edu.uz*. <https://global-edu.uz/bu-qiziqarli/writingni-rivojlantirish-uchun-tavsiyalar> (Murojaat sanasi: 2024).
- 3 Absalamova, R. H. (2025). IELTS Reading ko'nikmasini rivojlantirish uchun eng samarali usullar va tavsiyalar. *Journal of Innovation in Educational and Social Research*, 3(3), 12–16. ISSN: 2992-894X.
- 4 Absalamova, G. O'quvchilarning o'qish savodxonligi (Reading). // *Образование наука и инновационные идеи в мире*. – 2025. – Выпуск журнала №79, Часть-1 (Октябрь). – С. 149–150.
- 5 Xayitova S.P., Hasanova F.H. Ingliz tilida listening skilllarini rivojlantirish // *Modern education and development*. – 2025. – №40, 1-qism. – B. 276.
- 6 Muhammedova, M. (2024). Ingliz til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(6), 83-86.